

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2025.27.12.T.02.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

TO‘RAYEV ANVAR NORMAMATOVICH

**ALYUMINIY QOTISHMALARINING YEYILISHBARDOSHLILIGINI
OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi (Quymachilik va metallarga ishlov berish texnologiyasi yo‘nalishi)

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

To‘rayev Anvar Normamatovich

Alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshliligini oshirish texnologiyasini
takamillashtirish3

Тураев Анвар Нормаматович

Совершенствование технологии повышения износостойкости алюминиевых
сплавов27

Turaev Anvar Normamatovich

Improvement of the technology for increasing the wear resistance of aluminum
alloys.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2025.27.12.T.02.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

TO‘RAYEV ANVAR NORMAMATOVICH

**ALYUMINIY QOTISHMALARINING YEYILISHBARDOSHLILIGINI
OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga
termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar
metallurgiyasi (Quymachilik va metallarga ishlov berish texnologiyasi
yo‘nalishi)**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T3911 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Atajanov Gapur Latibovich**
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy oponentlar: **Dunyashin Nikolay Sergeyeovich**
texnika fanlari doktori, professor

Abduraxmonov Xusniddin Zakirxanovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/2025.27.12.T.02.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 1-may kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2.Tel./faks: (+998971) 227-10-32; e-mail: tadqiqotchi@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 99 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100095, Toshkent, Universitet ko'chasi -2. Tel: (998971) 227-10-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17-aprel kuni tarqatildi (2026-yil 14-aprel № 211 raqamli reyestr bayonnomasi).



K.A. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

SH.B. Tashbulatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

N.D. Turaxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda alyuminiy qotishmalaridan mashinasozlik va aviatsiya sanoati uchun detallar ishlab chiqarishda ularning yengilligini ta'minlash, ishlab chiqarish sharoitlaridan kelib chiqib ularning tarkibini optimallashtirish, legirlash va modifikatorlar qo'llashning samarali usullarini ishlab chiqish hamda yeyilishbardoshliligini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda AQSh, Xitoy, Angliya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston, Rossiya, Ukraina kabi rivojlangan mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida alyuminiy qotishmalaridan mashinasozlik va aviatsiya detallarini ishlab chiqarishda ularning mexanik va quymakorlik xossalarini yaxshilash, jumladan, yeyilishga bardoshlilik ko'rsatkichlarini oshirish hamda mazkur jarayonlarga oid texnologiyalarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda alyuminiy qotishmalaridan quyma usulda mashinasozlik detallarini ishlab chiqarish jarayonida ularning talab etilgan mexanik xossalarini ta'minlash maqsadida qotishmalarni legirlash va modifikatsiyalashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, LM24 turidagi alyuminiy qotishmasi tarkibiga yangi elementlar qo'shish orqali uning kimyoviy tarkibini takomillashtirish hamda mexanik xossalarini yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mashinasozlik va aviatsiya sanoatida keng qo'llaniladigan ushbu qotishmadan olinadigan detallar xizmat muddatini uzaytirish uchun samarali va iqtisodiy jihatdan tejamkor texnologiyalarni yaratish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda mashinasozlik, transport, energetika va qurilish tarmoqlarida alyuminiy qotishmalariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹,sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha... qarori ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Mazkur hujjatlarda milliy iqtisodiyotda ilg'or materiallar ishlab chiqarish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va mahalliy xomashyo asosida yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, alyuminiy qotishmalarining yeyilishga bardoshligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish masalasi mamlakat sanoati uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-sonli "Innovatsion g'oyalar,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-sonli «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021 yil 24 iyundagi PQ 5159-sonli "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi talablariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda dunyo olimlari, jumladan Germaniyalik olimlar V. Hutsaylyuk, va boshqalar tomonidan "7075 markali alyuminiy qotishmasining yeyilishbardoshlilikini oshirish" bo'yicha, Xitoyning Chongqing universiteti olimlari Xu Li va boshqalar tomonidan "Alyuminiy qotishmalarining dengiz texnikasida korroziya va yeyilishbardoshlikga chidamliligini oshirish" bo'yicha, Turkiyaning Karabuk Universiteti professori Yavuz Sun alyuminiy qotishmasiga Titan elementi 1-2% qo'shish orqali alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshlilikini oshirish" bo'yicha, Hindiston olimlari Marri Bhaskar va Tamilselvam Nallusamylar "Alyuminiy qotishmalarining suyuqlantirib olish mobaynida tarkibidagi gaz miqdorini kamaytirish" bo'yicha izlanishlar olib borishgan va ijobiy natija erishgan.

MDH davlatlari xususan Rossiyaning Tolyatti davlat universiteti olimlari M.M. Krishtal va boshqalar tomonidan "Alyuminiy-kremniy qotishmalaridan quyib olingan detallarning ishqalanishning ekstremal sharoitida ishlash uchun "mikro yoy oksidlanish" usuli yordamida yeyilishbardoshlilikini ta'minlash texnologiyasi ishlab chiqilgan. Rossiyalik olimlar A.V. Ivanov, P.N. Sidorov, E.L. Kravchenko (2019) alyuminiy qotishmalariga nanozarrachalar kiritish orqali yeyilishga bardoshni oshirish mexanizmlarini o'rganganlar. Belarus olimlari L. Petrovich va O. Zhukova (2021) anodlash va ion-plazmali qoplamalar yordamida tribologik xossalarni yaxshilash ustida tadqiqotlar olib borgan. Qozog'istonlik olimlar R. Baimukhanov, N. Kuvatov (2022) hamda S. Amanov (2021) SiC, TiB₂ va grafen zarrachalari asosida tayyorlangan alyuminiy kompozitlarning yeyilishga bardoshini oshirish mexanizmlarini tajribaviy jihatdan isbotlaganlar. Shuningdek, Rossiyalik V.A. Kuznetsov, A.P. Morozov (2020) hamda T. Smirnova, I. Chernov (2021) alyuminiy qotishmalarining issiqlik ishlovidan keyingi mikrostrukturasi va sirt xususiyatlarini tahlil qilganlar. Bu ishlar MDH miqyosida ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratmoqda.

O'zbekiston olimlaridan N.D.Turaxodjeyev, A.O.Shazimov, Yu.N.Mansurov, F.S.Abdullayev, G.L.Atajanov kabi yetakchi olimlar alyuminiy qotishmalarining quymakorlik hamda mexanik xossalarni yaxshilash ustida qator tadqiqotlar olib borishgan va ijobiy natijaga erishgan. Mahalliy tadqiqotchilar S. Yo'ldoshev, F. Karimov, S. G'aniev (2020–2023) alyuminiy qotishmalarining sirtini

oksidlash, modifikatsiyalash va issiqlik ishlov berish jarayonlarini tahlil qilib, optimal texnologik rejimlarni aniqlaganlar. D. Raximov, M. Abdurahmonov (2022) grafit va borli qo‘shimchalar yordamida tayyorlangan alyuminiy kompozitlarning yeyilishga bardoshini oshirish bo‘yicha tajribalar o‘tkazgan. B. Ismoilov (2021) Al-Si-Mg asosli qotishmalarda sirt mustahkamligini oshirishga xizmat qiluvchi qoplama turlarini o‘rgangan, U. Qodirov va J. Ergashev (2023) esa mexanik ishlov hamda issiqlik bilan mustahkamlashning tribologik natijalariga ta‘sirini tadqiq etganlar.

Dissertatsiya tadqiqoti dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga binoan № IL-210321288 “Gaz pechlarida aluminiy qotishmalaridan olinayotgan quyma mahsulotlar tarkibidagi gaz va nometall qo‘shimchalarning miqdorini kamaytirish texnologiyasini yaratish” mavzusidagi fundamental loyiha va № IL-5421101878 “Alyuminiy qotishmalarining mexanik, fizik va ekspluatatsion xossalarni oshirishning ilmiy asoslarini yaratish” mavzusidagi Toshkent davlat texnika universiteti va Innovatsion rivojlanish agentligining o‘rtasidagi tuzilgan fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aluminiy qotishmalarining yeyilishbardoshlilikini oshirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

alyuminiy qotishmasini turli quymakorlik qoliplarida quyib olishning qotishma yeyilishbardoshlilikiga ta‘sirini tadqiq qilish;

alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda legirlovchi sifatida Ni kukunlarining qotishmaga ta‘siri asosida qotishma yeyilishbardoshlilikini oshirish;

alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda legirlovchi sifatida Ni kukunlarining qotishmaga ta‘siri asosida qotishma zarbiy qovushqoqligini yaxshilash;

alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda legirlovchi sifatida Ni kukunlarining qotishmaga ta‘siri asosida qotishma cho‘zilishdagi mustahkamligini yaxshilash;

alyuminiy qotishmasini suyuqlantirib olishda himoya flyus asosida qotishma va unga kiritilgan legirlovchining kuyish miqdorini kamaytirish.

Tadqiqotning obykti sifatida UzAuto-INZI qo‘shma korxonasida LM24 qotishmasidan quyib olinayotgan taqsimlash valning qopqog‘i tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti LM24 markali alyuminiy qotishmasining yeyilishbardoshlilikini oshirish texnologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot usullari sifatida mikrotuzulish tahlillari uchun LV150N modeli metallografik elektron mikroskopdan, qattiqlik tahlillari uchun “Rockwell type hardness tester FR”dan, qotishma kimyoviy tarkibi “SPEKTROMETR-M5000” modeli spektrofotometrda, zarbiy qovushqoqligini aniqlashda Charpy testi usulidan foydalanilgan hamda boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlillar davlat standart usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

alyuminiy qotishmasini Ni kukuni bilan legirlash texnologiyasi Al_3Ni asosidagi birikmaning qotishma matritsasi bilan hosil qiladigan birikmaning xossasi asosida ishlab chiqilgan;

alyuminiy qotishmasining zarbiy qovushqoqligini oshirish texnologiyasi Al_3Ni va Al_7Cu_4Ni fazalarini shakllanishini ta'minlash xossasi asosida ishlab chiqilgan;

alyuminiy qotishmalarining cho'zilishdagi mustahkamligini yaxshilash texnologiyasi kiritilgan Ni kukunlari qotishmada intermetallik fazalar hosil bo'lishini ta'minlashi asosida ishlab chiqilgan;

alyuminiy qotishmasini yeyilishbardoshligini oshirish texnologiyasi qolipning issiqlik o'tkazuvchanligining metal haroratiga bog'liqlik ravishda o'zgarish dinamikasi asosida ishlab chiqilgan;

alyuminiy qotishmasini suyuqlantishda unga kiritilayotgan legirlovchining kuyish miqdorini kamaytirish texnologiyasi himoya flyusi oksidlanishdan himoya qilish samaradorligining kislorodga nisbatan aktivligining farqi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshligini oshirish uchun legirlash texnologiyasi joriy qilingan natijada alyuminiy qotishmasining yeyilishbardoshligi sezilarli darajada oshishiga erishilgan;

alyuminiy qotishmalariga kovsh ichida ishlov berish texnologiyasi joriy qilingan va natijada olinayotgan quyma mahsulotlarining zarbiy qovushqoqligi 5 foizgachaga oshgan;

alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda himoya flyusining tarkibi joriy qilingan va natijada metallning kuyish miqdori 18% ga kamayib iqtisodiy samaraga erishilgan;

alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda legirlovchi sifatida Ni kukunlarining qotishmaga ta'siri asosida qotishma zarbiy qovushqoqligini yaxshilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aniq qo'yilgan vazifa asosida ko'plab o'tkazilgan (5-7 ta) tadqiqotlar natijasida olingan mahsulotlarning mexanik, fizik va texnologik hossalarni o'rganishda zamonaviy IK-spektroskopiya, fazalarni identifikatsiyasi hamda bir yoki bir nechta aniq tasvirlar hosil qilish va sirt xossalari aniqlashni skanerlovchi elektron mikroskop (SEM-Zeiss EVO MA 10 (Carl Zeiss)) va (Empyrean Malvern Panalytical) intellektual difraktometri asosida o'tkazilganligi, qotishmalarining mexanik xossalarni aniqlashda "R-50 M" rakamli avtotexnika mashinasi yordamida amalga oshirilishi, olingan namunaning qattiqligi metall va qotishmalarining qattiqligini o'lchash uchun mo'ljallangan (Dura Vision-20) usullari yordamida aniqlangan natijalar bilan taqqoslash orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan natijalarining ilmiy ahamiyati yetakchi olimlar ilmiy izlanishlari tahlillari yordamida, alyuminiy qotishmalariga gaz pechda flyuslar bilan ishlov berilishi; kovshda rafinirlanishi va gaz pechining konstruksiyasining optimallashtirilishi

asosida resurs va energiyatejamkorlik ta'minlanishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot ishi natijalarining amaliy jihatdan ahamiyati shundaki, LM24 markali alyuminiy qotishmasini eritib, undan sifatli quyma mahsulot tayyorlashda, qotishmaga kovshda modifikatsiyalab ishlov berish natijasida qotishmaning yeyilishbardoshlik xossasi oshdi hamda alyuminiy qotishmasini legirlash texnologiyasi asosida qotishmaning yeyilishbardoshliligi ortdi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshliligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalar asosida:

alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshligini oshirish uchun legirlash texnologiyasi "UzAuto-INZI" MCHJ QKda joriy qilingan ("O'zAvtosanoat" AJ ning 27.02.2025 yildagi 21/06-25-0372-sonli ma'lumotnomasi). Joriy qilish natijasida alyuminiy qotishmasining yeyilishbardoshligi 9-11% ga oshgan;

alyuminiy qotishmalariga kovsh ichida ishlov berish texnologiyasi "UzAuto-INZI" MCHJ QKda joriy qilingan ("O'zAvtosanoat" AJ ning 27.02.2025 yildagi 21/06-25-0372-sonli ma'lumotnomasi). Joriy qilish natijasida olinayotgan quyma mahsulotlarining zarbiy qovushqoqligi 4-5% ga oshgan;

alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda himoya flyusining tarkibi "UzAuto-INZI" MCHJ QKda joriy qilingan ("O'zAvtosanoat" AJ ning 27.02.2025 yildagi 21/06-25-0372-sonli ma'lumotnomasi). Joriy qilish natijasida metallning kuyish miqdori 16-18% ga kamaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari jami 13 ta, jumladan 10 ta xalqaro miqyosda konferensiyalarida va scopus bazasida indeksatsiyalangan xalqaro konferensiyalarda 1 ta tezis, 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha umumiy holda 20 ta ilmiy ishlar nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 6 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgi va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **"Alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshliligini**

oshirish texnologiyasini takomillashtirish” deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilinib, alyuminiy qotishmalarining qo‘llanilish sohalari va ularning xossalari va alyuminiy qotishmalarining turlari. Alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshlilikini oshirish uchun jaxonda olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili. Alyuminiy qotishmalariga pech ichida va kovsh ichida ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha jaxonda olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda qo‘llaniladigan flyuslarning tarkibini takomillashtirish bo‘yicha jaxonda olib borilayotgan tadqiqotlar tahlili. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirishda ekologik muammolar va ularni bartaraf etish usullari.

Alyuminiy qotishmalarining yeyilishbardoshlilik xossasini oshirish bo‘yicha jahon hamda o‘zbek olimlarining alyuminiy qotishmalari ustida olib brogan sinov-tadqiqotlari o‘rganildi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob’ektini tanlash va metodikasini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob’ektlari uchun alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish uchun “UzAvto-INZI” QK da mavjud 3 tonnali gaz pechi va LM24 markali alyuminiy qotishmalari, adapter 12 va adapter 11 detallari olindi.

Xususan tadqiqot namunalarining tarkibidagi metall bo‘lmagan qo‘shimchalar hamda gaz g‘ovaklarining tahlili uchun “UzAuto-INZI” QKning markaziy laboratoriyasi Nikon Eclipse LV150N metallografik mikroskopdan foydalanilgan. Bunda ushbu mikroskop orqali tahlil qilinayotgan namunalarni 100-2000 martagacha kattalashtirilib olingan (1-rasm). Olingan mikroskopik mikrostruktura tahlillar asosida tadqiqot namunalari suyuqlantirish davrida qo‘shilishi mumkin bo‘lgan tarkibidagi metal bo‘lmagan qo‘shimchalar hamda gaz g‘ovaklarining nazorati usullari tahlil qilingan.



1 - rasm. LM 24 markali alyuminiy qotishmaning Nikon Eclipse LV150N metallografik mikroskopida olingan mikrostruktura tasvirlari.

Tadqiqot ishlari mobaynida olingan tajriba namunalarining mikrotahlilini o‘tkazish uchun mikrotahlil tizimli spektrometrdan foydalanildi. UzAuto-INZI” QKning markaziy laboratoriyasida “SPEKTROMETR-M5000” uskunasi bilan foydalangan holda qotishma ning kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Alyuminiy qotishmasini mexanik xossalarini yaxshilash ustidagi tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida alyuminiy qotishmasini quyib olishning bir nechta usullari ko‘rib chiqildi. Biz bilgan keng tarqalgan qumgilli qoliplarga quyib olish usuli bu keng tarqalgan, sodda va asrlardan qolib

kelayotgan quyish usuli. Bu usulda detal modeli asosida qum-gilli aralashmadan qolip tayyorlanadi va model chiqarib olinib yoki eruvchan model bo'lsa joyida qoladi, ustiga suyuq metal quyib olinadi. Avzalligi tan narxi arzon, tajriba uchun va murakkab geometrik shaklli detallarni donali ishlab chiqarish uchun quyib olsa bo'ladi, kamchiliklari seriyalab ishlab chiqarish qiyin, yuza g'adir budurligini va o'lchamlar aniqligini ta'minlash murakkab, shuning uchun mexanik ishlov berish talab etiladi.

Metall (opoka) qoliplarga quyib olish. Bu usulda odatda suyuq qotishma qotishmasi metall, po'lat yoki cho'yandan tayyorlangan qolipga quyib olinadi. Qolip ko'p marta ishlatilishga mo'ljallangan. Avzalligi aniq o'lchamli va silliq yuzali detallarni olsa bo'ladi. Seriyali ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Kamchiligi, murakkab shaklli detallarni quyish imkoni qiyin, qolip tan narxi qimmatga tushadi.

Bosim ostida metall qolipga quyish. Bu usulda suyuq yotishma belgilangan bosimda maxsus avtomatlashtirilgan mashinalar bilan quyiladi. Avzalligi aniq o'lchamli va silliq yuzali detallarni olsa bo'ladi. Seriyali ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Kamchiligi, murakkab shaklli detallarni quyish imkoni qiyin, qolip tan narxi juda qimmatga tushadi.

Tadqiqotlarni LM24 alyuminiy qotishmasiga Ni kukunlari bilan legirlash orqali qotishmaning mexanik xossalarini yaxshilash bo'yicha olib bordik. LM24 (Al-Si8Cu3Fe) alyuminiy qotishmasiga nikel elementining (Ni) qo'shilishi bu qotishmaning mexanik xossalari, jumladan, yeyilishbardoshlilik va zarbiy qovushqoqligini yaxshilash uchun legirlovchi element sifatida tavsiya etiladi. Biroq, legirlovchi sifatida Ni qo'shishda uning miqdorlari dinamikasini avvaldan chuqur tahlil qilish tavsiya etiladi, chunki Ni miqdorining me'yorida ortishi natijasida Al qotishmasining mo'rtligi xaddan ziyod ortib ketishi mumkin. Shuning uchun biz quyidagi tadqiqotlarda ushbu dinamikani tadqiqotlarda qo'llab natijalarini ilmiy tahlil qilib oldik.

Tadqiqotlarimizda, LM24 (Al-Si8Cu3Fe) alyuminiy qotishmasining yeyilishbardoshligini oshirish hamda zarbiy qovushqoqligini saqlab qolishni muhim maqsad qilib olganmiz. Ishlab chiqilgan tadqiqot usullarida, qotishmaga nikel elementining 0.5–1.5% miqdorida kiritish ushbu ikki muhim ko'rsatkichlar muvozanatini ta'minlab beradi.

Shu sababli biz ushbu qiymatlarda tajriba qilishni belgilab olganmiz. Ya'ni, bunda qotishmada intermetallik birikmalar, Al₃Ni, qotishma matritsasi bo'ylab teng taqsimlanadi, bu kuchlanish konsentratsiyalarini kamaytirishi natijasida qotishma mikrostrukturasining barqarorligini oshirib beradi. Shu bilan birga, dispers kuchaytiruvchi fazalar hosil bo'ladi. Natijada abraziv va adgeziv muhitlarda yeyilishbardoshlik yaxshilanadi. Zarbiy qovushqoqlik ham kamaymaydi, ya'ni qotishma mo'rt birikma xosil qilmaydi.

Shuningdek, Ni qo'shilishi natijasida qotishmaning issiqlikka chidamliligi ham biroz oshadi, bu esa uni yuqori haroratli muhitlarda ishlatish imkoniyatini kengaytiradi. Optimal miqdordan ortiqcha Ni qo'shilishi esa ortiqcha intermetallik fazalarning ko'p miqdorda paydo bo'lishiga, mikrostrukturada mo'rtlik zonalarini vujudga keltirishga va zarbiy qovushqoqlikning keskin pasayishiga olib kelishi

mumkin.

Tadqiqotlarimizda obekt sifatida tanlab olingan LM24 (Al-Si8Cu3Fe) alyuminiy qotishmasiga legirlovchi sifatida Ni elementi turli miqdorlarda kukun shaklida kiritildi.

Tadqiqotlar “Quymakorlik texnologiyalari” ilmiy laboratoriyasida olib borildi, shixta sifatida LM24 qotishmasi olindi hamda elektr induksion pechida 1 kg sig‘imga ega grafit tigelda suyuqlantirib olindi. Legirlovchi elementning har bir miqdordagi tadqiqotlar uchun alohida plavka suyuqlantirib olindi. Tadqiqot namunalari bir martalik qum-gilli qoliplarga quyib olindi.

1-jadval

Tadqiqotlar uchun tanlab olingan qotishmalarning kimyoviy tarkibi

Marka	Elementlar, %									
	Cu	Mg	Si	Fe	Mn	Ni	Zn	Pb	Ti	Sn
LM24	3.0-4.0	3.0 max	7.5-9.5	1.3 max	0.5 max	0.6 max	3.0 max	0.3 max	0.2 max	0.2 max
N1	3.0-4.0	3.0 max	7.5-9.5	1.3 max	0.5 max	0.9	3.0 max	0.3 max	0.2 max	0.2 max
N2	3.0-4.0	3.0 max	7.5-9.5	1.3 max	0.5 max	1.2	3.0 max	0.3 max	0.2 max	0.2 max
N3	3.0-4.0	3.0 max	7.5-9.5	1.3 max	0.5 max	1.5	3.0 max	0.3 max	0.2 max	0.2 max
N4	3.0-4.0	3.0 max	7.5-9.5	1.3 max	0.5 max	1.8	3.0 max	0.3 max	0.2 max	0.2 max



2-rasm. Shixta miqdoriga bog‘liq holda Ni zarralarini kiritish.

Qotishmalar suyuqlantirib olingan so‘ngra bir martalik qum-gilli qoliplarga quyib olindi. Quyib olingan namunalar qolip aralashmalaridan tozalanib, ularga 1K62 tokarlik jihozida mexanik ishlov berilib, mexanik xossalar sinovlari uchun tayyorlandi.

Yeyilishbardoshlik sinovlari. LM24 alyuminiy qotishmasiga Ni elementining turli miqdorlarida kukun xolatda kiritilgan namunalar uchun abraziv yeyilishbardoshlikni aniqlash sinovi o‘tkazildi. Namunaning abraziv yeyilish xossalarini aniqlash uchun olmos diskli mahsus jihozdan foydalanildi. Legirlovchi sifatida 5 hil miqdorda Ni elementi kiritilgan namunalar barchasi bir hil o‘lchamli va bir hil og‘irlikdagi namunalar holiga keltirilgan. Sinov boshlandi, olmos disk xarakterga keltirildi va namunaga yuk qo‘llanilib, tayanch qo‘l mexanizmi orqali aylanuvchi diskka tekkizildi.




3-rasm. LM24 alyuminiy qotishmalarining quyma qolip turlariga bog‘liq holda yeyilishbardoshlik testi sinov jarayonlari.

Yuk qo‘llanganda, namunalar doimiy ravishda olmos disk bilan ta’siri ta’minlab turildi. Sinovlar 10 N yuk ostida olmos disk tezlik oralig‘i (1 m/s dan 4 m/s gacha) olib borildi. Har bir vaqt oralig‘idagi sinovlardan so‘ng, namunalarning abraziv yeyilish ta’sirida og‘irlik yo‘qotilishi qayd etib turildi. Shundan kelib chiqib, har bir namunalarning belgilangan vaqtlar davomida hajm yo‘qotilishi aniqlandi. Natijada, shunga mos ravishda yeyilish qiymatlari hisoblab chiqildi. Quyib olingan namunalarning nikel miqdoriga bog‘liq holda, vaqt birligida og‘irligining yo‘qotilishi bo‘yicha ularning yeyilishbardoshlilik qobilayati sinov jarayonlari natijalari quyidagicha.

2-jadval

Vaqt birligida sinov namunalari og‘irligining yo‘qotilishi Ni miqdoriga bog‘liqligi qiymatlari.

Vaqt, min		1	2	3	4	5	6
Yo‘qotilgan og‘irlik, gm	LM24	0.09	0.06	0.08	0.08	0.09	0.10
	LM24+0.9Ni	0.09	0.08	0.07	0.08	0.08	0.09
	LM24+1.2Ni	0.02	0.03	0.03	0.03	0.04	0.04
	LM24+1.5Ni	0.07	0.10	0.10	0.11	0.11	0.13
	LM24+1.8Ni	0.07	0.07	0.07	0.08	0.08	0.09



4-rasm. LM24 alyuminiy qotishmasiga kiritilgan Ni miqdoriga bog‘liq holda yeyilishbardoshlik ko‘rsatkichlari

LM24 qotishmasi Ni legirlovchisiz sof holatda sinov jarayonida, vaqt birligida og'irlik yo'qotilishining miqdori nisbatan yuqori va notekisligi kuzatildi. Natijada, LM24 qotishmasi yeyilishbardoshlik qobiliyati nisbatan sezgirlik namoyon etganligini ko'rsatdi, ya'ni yeyilishdan himoya fazalari yoki matritsada qattiq zarrachalar kamligi uchun yeyilishbardoshlilik yetarlicha emas.

0.9% nikel zarralari qo'shilgan qotishmada vaqt birligida og'irlik yo'qotilishi biroz kamaydi, lekin natija aytarli emas ya'mi, Al matritsada Al_3Ni intermetall fazalari oz miqdorda hosil bo'lishi boshlangan ammo ularning hajm bo'ylab taqsimlanganligi va zichligi yetarlicha emas. Bu qotishmada mikrostruktura biroz yaxshilangan bo'lsa ham yetarli yeyilishbardoshlik qobiliyatiga ega emas.

1.2 % nikel zarralari bilan legirlash eng yaxshi yeyilishbardoshlilik qobilayati berdi bunda, vaqt birligida og'irlik yo'qotilishi barcha belgilangan vaqtlar davomida eng past ko'rsatkichni berdi. Ya'ni, bunda Al_3Ni intermetall zarrachalari yetarlicha hosil bo'ldi. Qotishmada ular matritsa xajmi bo'ylab bir tekis taqsimlanganligini ko'rsatdi. Xosil bo'lgan fazalar qattqlik va yeyilishbardoshlikni ta'minlab, mikrostrukturani ham yaxshilab berdi, shu bilan LM24 qotishmasi uchun optimal legirlovchi sifatida 1.2 % Ni miqdori tanlab olindi.

1.5% nikel elementi qo'shilganda vaqt birligida og'irlikning yo'qotilishi ortib ketdi, bunga sabab yuqori miqdorda legirlash natijasida matritsada ortiqcha intermetall fazalar miqdori qotishmani mo'rtlashtirib yuborishidir. Mikrostrukturadagi Al_3Ni zarrachalari meyoridan ortib ketganligi sababi, ular notekis taqsimlangan. Natijada qotishmaning yeyilishbardoshligi tushib ketdi. Demak bu miqdorda legirlash optimal yechim emas deb qaraymiz.



5-rasm. Tadqiqot namunalarini Brinell usulida qattqligini aniqlash jarayoni

1.8% nikel miqdori ham yuqori lekin yeyilishbardoshlik qobiliyati 1.5 % ga nisbata ozgina yaxshiroq bo'ldi. Lekin 1.2 % miqdor bilan taqqosalgan yaxshi emas. Shu sababi bu miqdorda legirlash ham optima yeshim emas. Bu mmiqdorda ham huddi 1.5 singari qotishma matritsada intermetalitik fazalar bir tekis taqsimlanmasigi va haddan tashqari ortib ketishi natijasida mo'rtlik xosil qildi, va yeyilishbardoshlik qobilyatini ta'minlay olmadi.

Qattqlik sinovlari. LM24 qotishmasiga 5 hil miqdorlarda kiritilgan namunalar ustida qattqlik sinovlari olib borildi.

Tarkibiga 0.9 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattqligini baholash qiymatlari. Tadqiqot davomida LM24+0,9Ni qotishmasining Brinell bo'yicha qattqligi 5 martadan o'Ichandi hamda har bir

o'lchash jarayonida olingan qiymatlar bo'yicha ularning o'rta arifmetik qiymatlari olindi (4-jadval).

3-jadval

0.9 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligi sinov natijalari.

0.9 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan namuna			
Tajriba №	Qiymati, HB	Iz chuqurligi, d mm	D/d nisbati
1	89.2	3.71	0.371
2	85.8	3.78	0.378
3	88.3	3.73	0.373
4	83.5	3.83	0.383
5	84.4	3.81	0.381
O'rtacha qiymati	86.3	-	-

Bu yerda Brinell bo'yicha qattiqlik qiymatlarini aniqlashda foydalaniladigan formulalar parametrlari, D – sharcha diametri (10 mm) va d – qoldirilgan iz chuqurchasining diametri, mm.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, qotishmaning HB bo'yicha o'rtacha qiymati 86.3 HB ga teng deb belgilab oldik.

Tarkibiga 1.2 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligini baholash qiymatlari. Tadqiqot davomida LM24+1.2Ni qotishmasining Brinell bo'yicha qattiqligi 5 martadan o'lchandi hamda har bir o'lchash jarayonida olingan qiymatlar bo'yicha ularning o'rta arifmetik qiymatlari olindi (4-jadval).

4-jadval

1.2 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligi sinov natijalari.

1.2 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan namuna			
Tajriba №	Qiymati, HB	Iz chuqurligi, d mm	D/d nisbati
1	88.8	3.72	0.372
2	89.2	3.71	0.371
3	89.8	3.70	0.370
4	90.3	3.69	0.369
5	89.2	3.71	0.371
O'rtacha qiymati	89.5	-	-

Tarkibiga 1.5 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligini baholash qiymatlari. Tadqiqot davomida LM24+1.5Ni qotishmasining Brinell bo'yicha qattiqligi 5 martadan o'lchandi hamda har bir o'lchash jarayonida olingan qiymatlar bo'yicha ularning o'rta arifmetik qiymatlari olindi (5-jadval).

5-jadval**1.5 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligi sinov natijalari.**

1.5 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan namuna			
Tajriba №	Qiymati, HB	Iz chuqurligi, d mm	D/d nisbati
1	95.0	3.6	0.360
2	90.8	3.68	0.368
3	94.5	3.61	0.361
4	90.8	3.68	0.368
5	94.5	3.6	0.360
O'rtacha qiymati	93.1	-	-

Tarkibiga 1.8 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligini baholash qiymatlari. Tadqiqot davomida LM24+1.5Ni qotishmasining Brinell bo'yicha qattiqligi 5 martadan o'lchandi hamda har bir o'lchash jarayonida olingan qiymatlar bo'yicha ularning o'rta arifmetik qiymatlari olindi (6-jadval).


6-jadval**1.8 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan LM24 qotishmasining Brinell HB bo'yicha qattiqligi sinov natijalari.**

1.8 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan namuna			
Tajriba №	Qiymati, HB	Iz chuqurligi, d mm	D/d nisbati
1	95.5	3.59	0.359
2	95.0	3.6	0.360
3	95.5	3.59	0.359
4	94.5	3.6	0.360
5	94.5	3.6	0.360
O'rtacha qiymati	95.0	-	-

Demak, LM24 alyuminiy qotishmasi tarkibiga legirlovchi sifatida 5 hil miqdorda Ni zarralari kiritilgan qotishmalarning HB bo'yicha qattiqlik qiymatlari quyidagi garfikda keltirildi. Ushbu tadqiqotlar UzAuto-INZI ishlab chiqarish korxonasida olib borildi (7-jadval).

7-jadval**Kiritilgan Ni miqdoriga bog'liq holda sinov namunalari HB bo'yicha qattiqligining o'rtacha qiymatlari**


Ni zarralari miqdori, %	LM24	LM24+0.9Ni	LM24+1.2Ni	LM24+1.5Ni	LM24+1.8Ni
Qattiqlik HB	79	86.3	89.5	93.1	95.0



6-rasm. LM24 qotishmasiga kiritilgan Ni elementi zarralari miqdorining qattqlikka bog‘liqligi

Yuqoridagi grafikdan ko‘rinadiki, qotishma tarkibida Ni zarralari miqdori ortgani bilan qotishmaning qattqligi ham ortib bordi. Bu qotishmaning qattqligini Ni zarralari kiritish natijasida uning qattqligini yaxshilash mumkunligi xulosasini beradi.

Charpy testi sinovi. LM24 alyuminiy qotishmasiga turli miqdorlarda legirlovchi sifatida Ni kukunlari kiritilib tayyorlangan o‘lchami 10x10 mm bo‘lgan tadqiqot namunalari ushlagich bilan asosiy plastinka ustiga joylashtirildi. Tebranma mayatnik namunaning markaziga zarba bilan ta’sir ko‘rsatdi. Mayatnik zarba berganda namunalar siljib ketmasligi uchun mahkam ushlab turildi. Hamda mayatnik ma’lum bir balandlikdan tebranish bilan xarakatga keltirildi. Namunalar sinish vaqtida mayatnikning qanday balandlikdan qo‘yib yuborilganini qayd etilib, tegishli ta’sir kuchi aniqlandi 7-rasm.



7-rasm. Ni kukunlari turli miqdorlarining LM24 qotishmasining zarbiy qovushqoqligiga ta’siri

8-jadval


Kiritilgan Ni miqdoriga bog‘liq holda sinov namunalari zarbiy qovushqoqligining o‘rtacha qiymatlari

Ni zarralari miqdori, %	LM24	LM24+0.9Ni	LM24+1.2Ni	LM24+1.5Ni	LM24+1.8Ni
Zarbiy qovushqoqlik, Nm	2.0	2.5	3.0	2.6	2.3

LM24 alyuminiy qotishmasi yaxshi quymakorlik va mexanik xossalariga ega. Biroq ba'zi ma'suliyatli joylarda foydalanish uchun uning zarbiy qovushqoqligini nisbata yaxshilash talab etiladi. Yuqrida turli qoliplarga quyib olganimizda kuzatganimizdek qotishmani qum-gilli qolipga quyib olganimizdagi qotishmaning o'rtacha zarbiy qovushqoqligi 2.0 Nm bo'lganligini tajriba usuli bilan aniqladik (8-jadval). Bu qotishma odatda nisbatan mo'rtroq va sinishga moyil.

Biz bu qotishma mexanik xossalarini, jumladan zarbiy qovushqoqligini yaxshilash maqsadida tadqiqotlar olib bordik. Ya'ni, qotishma tarkibiga Ni elementi kukunlarini 0.9%, 1.2%, 1.5%, 1.8% miqdorda kiritdik. Bunda Ni kukunlari qotishmada termik barqaror intermetallik fazalar shakllantirib berdi. Jumladan Al_3Ni , Al_7Cu_4Ni kabi qattiq va barqaror zarrachalarning hosil bo'lishiga olib keldi. Qotishma tarkibida Ni zarrachalari kuchlanishni teng taqsimlab qolmasdan, qotishma mikrostrukturasi ham barqarorlashtirib, yuklamalar bilan ishlovchi qismlarda zarb ta'sirida energiyani so'ndirishga ham yordam beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 0.9–1.2% Ni kukunlari kiritilgan qotishmaning zarbiy qovushqoqligi sezilarli yaxshilanganligi kuzatildi, ayniqsa 1.2 % kiritilgan qotishmada bu ko'rsatkich o'rtacha 3.0 Nm ni tashkil qildi. Ya'ni, bu qotishmada Al_3Ni zarrachalarining xajm bo'ylab bir tekis taqsimlanishi bilan ta'minlandi. Ni kukunlari miqdori 1.5% va 1.8% kiritilgan qotishmada esa teskari natija kuzatildi. 1.5% dan keyin zarbiy qovushqoqlik ko'rsatkichlari pastlab o'rtacha 2.6 Nm ni tashkil etdi. 1.8% miqdorda kiritilgan qotishmada esa bu ko'rsatkich yana o'rtacha 2.3 Nm ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkun. Bunday holatga asosiy sabab qilib qotishm matritsasida intermetallitik fazalarning me'yoridan ortib ketishi va xajm bo'ylab teng taqsimlanmasigidir. Bu esa mo'rt fazalar xosil qilib, mikrodarzlar xosil bo'lishiga ham olib keladi.



A = 36 mm	D = 6 mm
B = 100 mm	G = 30 mm
C = 9 mm	R = 6 mm

8-rasm. Universal test jihozida qotishmaning cho'zilishdagi mustahkamlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Cho‘zilishdagi mustahkamlik sinovlari. Konstruksiya qismlari mustahkam bo‘lishi uchun uning xavfli ko‘ndalang kesimlarida hosil bo‘ladigan maksimal normal kuchlanish shu namuna materiali uchun ruxsat etilgan normal kuchlanishdan ortib ketmasligi zarur.

Test sinovlari uchun “Quymakorlik texnologiyalari” ilmiy laboratoriyasi 0.9%, 1.2%, 1.5%, 1.8% miqdorda Ni kukunlari kiritilib har miqdor bo‘yicha 5 donadan quyma namunalari tayyorlab olindi. Quyib olingan namunalarga mexanik ishlov berilib belgilangan o‘lchamlarga keltirildi.

Tadqiqotlarda har bir namunalarning cho‘zilishdagi mustahkamlik chegarasi (UTS), elastiklik chegarasi (YS) hamda cho‘zilishdagi uzayish foizi (EL) ekani ko‘rsatkichlarini aniqlab oldik. Qotishmaga qo‘yilgan standart ko‘rsatkichlar, UTS \geq 155 MPa; YS \geq 130 MPa; EL \geq 0.5 % (9-jadval).

9 – jadval


Tadqiqot namunalarining o‘rtacha cho‘zilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichlari.

Ni zarralari miqdori, %	LM24	LM24+0.9Ni	LM24+1.2Ni	LM24+1.5Ni	LM24+1.8Ni
Cho‘zilishdagi mustahkamlik chegarasi (UTS), MPa	172.57	176.25	182.51	181.43	179.66
Elastiklik chegarasi, (YS) MPa	162.42	161.32	169.39	168.21	164.18
Cho‘zilishdagi uzayish foizi (EL), %	0.61	0.69	0.73	0.74	0.67

10 – jadval

Tarkibiga Ni kukunlari kiritilmagan tadqiqot namunalarining statik test sinov natijalari

Namuna	Kesim yuzasi, mm ²	Qo‘yilgan maksimal kuch, kgF	Mustahkamlik chegarasi, MPa	Cho‘zilishdagi uzayish, %	Elastiklik chegarasidagi kuch, KgF	Elastiklik chegarasi, MPa
LM24	28.26	497.26	172.57	0.61	468.01	162.42




9-rasm. Ni kiritilmagan namunaning kuchlanish–deformatsiya grafigi

11-jadval

Tarkibiga 0.9 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan tadqiqot namunalarining statik test sinov natijalari

Namuna	Kesim yuzasi, mm ²	Qo'yilgan maksimal kuch, kgF	Mustahkamlik chegarasi, MPa	Cho'zilish-dagi uzayish, %	Elastiklik chegarasidagi kuch, KgF	Elastiklik chegarasi, MPa
LM24 +0.9Ni	28.26	507.86	176.25	0.69	464.84	161.32




10-rasm. 0.9 % Ni kiritilgan namunaning kuchlanish–deformatsiya grafigi

12-jadval

Tarkibiga 1.2 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan tadqiqot namunalarining statik test sinov natijalari

Namuna	Kesim yuzasi, mm ²	Qo'yilgan maksimal kuch, kgF	Mustahkamlik chegarasi, MPa	Cho'zilish-dagi uzayish, %	Elastiklik chegarasidagi kuch, KgF	Elastiklik chegarasi, MPa
LM24 +1.2Ni	28.26	525.90	182.51	0.73	488.09	169.39




11-rasm. 1.2 % Ni kiritilgan namunaning kuchlanish–deformatsiya grafigi

13 – jadval

Tarkibiga 1.5 % miqdorda Ni kukunlari kiritilgan tadqiqot namunalarining statik test sinov natijalari

